

## Buxoro viloyatida kutubxona (ARM va AKM) faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ 4354 sonli qarorining 4-bandiga asosan:

Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan Axborot Resurs Markazlari tugatilib, Axborot Kutubxona Markazlariga o'zgartirildi. Tugatilayotgan ARMLarning kitob fondlari va shtat birliklarini yangidan tashkil etilayotgan tuman (shahar) axborot kutubxona markazlariga topshirildi.


Maktablardagi axborot resurs markazlarining kitob fondlari Viloyat xalq ta'limiga qarashli AKMga o'tkazildi.

Buxoro viloyatida jami 23 ta axborot kutubxona markazlari faoliyat yuritadi. Shundan Oliy ta'lim muassasalarida 5 ta AKM, Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 1 ta AKM, Buxoro Davlat Universiteti qoshidagi Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida 1 ta AKM, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Boshqarmasiga qarashli akademik litseyda 1 ta AKM, Buxoro Elektr tarmoqlari a/jda 1 ta AKM, Viloyat ko'zi ojizlar jamiyatida 1 ta AKM faoliyat yuritmoqda.


## Buxoro viloyatida kutubxona (ARM va AKM) faoliyati

	Muassasalar soni, birlik	Kutubxona fondi, ming nusxa	Foydalanuvchilar soni, ming kishi	Foydalanishga berilgan kitob va jurnallar, ming nusxa
<b>BUXORO VILOYATI</b>	23	2593,6	183,4	4959,1
<b>shu jumladan shaharlar:</b>				
Buxoro	10	1341,0	56,0	2676,8
Kogon	1	65,3	0,7	4,6
<b>tumanlar:</b>				
Olot	1	150,8	10,5	320,5
Buxoro	1	98,2	5,5	112,2
Vobkent	1	194,2	18,3	413,0
G'ijduvon	1	192,8	12,4	308,0
Kogon	2	37,9	3,1	35,7
Qorako'l	1	48,5	14,1	228,5
Qorovulbozor	1	8,3	1,8	4,2
Peshku	1	69,0	6,5	90,9
Romitan	1	110,6	24,4	354,6
Jondor	1	154,4	14,0	100,8
Shofirkon	1	122,5	16,1	309,5

## 2020-yil 1-yanvar holatiga hududlar bo'yicha kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni, ming kishi




## 2020-yil 1-yanvar holatiga hududlar va tillar bo'yicha kutubxona muassasalari kitob fondi, ming nusxa



## Buxoro viloyatida konsert tashkilotlari faoliyati

2019-yilda konsert tashkiloti soni 1 tani tashkil etadi. Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni 31,5 ming kishini tashkil etadi. Konsertlar soni esa 283 tadan iborat. Konsertlardan tushgan tushum 1004,9 ming so'mni tashkil etadi.



## Madaniyat markazlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	Muassasalarning umumiy soni	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarlarda ishtirok etganlar, ming kishi
<b>BUXORO VILOYATI</b>	<b>50</b>	<b>3821</b>	<b>1828.7</b>
shu jumladan shaharlar:			
Buxoro	5	1237	831
Kogon	3	133	55.9
tumanlar:			
Olot	3	152	42.7
Buxoro	5	235	19
Vobkent	4	134	60.3
G'ijduvon	4	250	87.2
Kogon	2	171	25.4
Qorako'l	4	109	21.2
Qorovulbozor	1	87	19.6
Peshku	5	227	88.7
Romitan	5	443	427
Jondor	4	165	55.2
Shofirkon	5	478	95.5

Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni 3821 tani tashkil etdi, ulardan ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari 29,1 % (1112 ta), mavzuli, adabiy-badiiy kechalar 37,1 % (1419 ta), teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari 7,6 % (290 ta), konsertlar 26,2 % (1000 ta)ni tashkil etadi.

## Muzeylar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Buxoro viloyatida muzeylar soni 16 tani, ulardan filiallari soni esa 15 tani tashkil etadi. 2019-yilda muzeylarda tashrif buyuruvchilar soni 1137,2 ming kishini tashkil etdi. Tashrif buyuruvchilarning 203,1 ming (17,9%) nafari o'quvchi va talabalardan iborat. Muzeylarda 601 ta ma'ruzalar o'qilgan. Muzeylar tomonidan jami 55 ta ko'rgazmalar, 65150 ta ekskursiyalar tashkil qilingan. Ekskursiya tarzida 233,3 ming kishi qatnagan.

## Ekspонатlar turi bo'yicha muzeylar fondi

	Yil oxiriga asosiy fond eksponatlari soni	Ulardan hisobot yilida namoyish etilganlari	Noyob eksponatlar	Tiklash talab qilinadiganlar
<b>JAMI</b>	<b>85361</b>	<b>10278</b>	<b>70</b>	<b>1512</b>
shu jumladan:				
Rassomlik	467	89	9	-
Grafika	478	23	-	-
Haykaltaroshlik buyumlari	91	12	1	-
Amaliy san'at buyumlari	2835	1212	19	-
Numizmatika buyumlari	33089	1015	5	769
Arxeologiya buyumlari	13490	1022	6	162
Maishiy va etnografiya buyumlari	8835	6284	23	447
Suratlar	2714	123	-	-
Hujjatlar	18005	46	-	134
Boshqalar	5357	452	7	-

## Teatrlar tarmog'i va faoliyati


Buxoro viloyatida teatrlar soni 2 tani tashkil etadi, bular drama va bolalar uchun qo'g'irchoq teatridir. 2019-yilda teatrlarda 699 ta spektakllar namoyish etilgan. Teatrga kelgan tomoshabinlar soni 127,7 ming kishidan iborat. Teatrlar Buxoro shahrida joylashgan bo'lib, drama teatri o'zbek tilida, bolalar uchun qo'g'irchoq teatri esa o'zbek va rus tillarida faoliyat olib boradi. Teatrlarda shtatdagi artist xodimlar va shtatdan tashqari ishlovchilar soni 31 nafar, shu jumladan 12 nafarini ayollar tashkil etadi. Jami xodimlarning 14 nafari drama teatrida, 17 nafari esa bolalar uchun qo'g'irchoq teatrida faoliyat yuritadi.

### Teatrlarning janri bo'yicha spektakllar (tomoshalar) soni

	Spektakllar (tomoshalar) soni	O'z joyida namoyish qilingan spektakllar	Ko'chma spektakllar	Qishloq aholisi uchun spektakllar	Bepul spektakllar soni	Ulardan qishloq joylarda
<b>JAMI</b>	<b>699</b>	<b>191</b>	<b>508</b>	<b>394</b>	<b>50</b>	<b>34</b>
shu jumladan janrlar bo'yicha:						
<b>Drama</b>	<b>329</b>	<b>59</b>	<b>270</b>	<b>242</b>	<b>50</b>	<b>34</b>
<b>Bolalar uchun qo'g'irchoq</b>	<b>370</b>	<b>132</b>	<b>238</b>	<b>152</b>	<b>-</b>	<b>-</b>

## Buxoro viloyatida madaniyat va istirohat bog'lari

2019-yil viloyatimizda madaniyat va istirohat bog'lari soni 12 tani tashkil etadi. Ular 90,0 gektar maydonni egallaydi. 2019-yilda jami qatnovlar soni 195296 kishini tashkil etib, ulardan 138600 kishini bolalar tashkil etadi.



**Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**

(65) 220-83-18,

(65) 223-81-65